

**ANDIJON VILOYATI PAXTAOBOD TUMANIDA 2021-2023 YILLARDA
AMALGA OSHIRILGAN TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH
JARAYONI**

*Jalilov Muslimbek Ro'ziboyev Ma'ruf Sultonov Og'abek
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
"Moliya" fakulteti 83-guruh talabalari*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Andijon viloyat Paxtaobod tumani 2021-2023 yillarda tashabbusli budjetlashtirish jarayoni, ajratilgan mablag'lar miqdori, amalga oshirilgan loyihalar talil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** tashabbusli byudjet, openbudget.uz, tashabbus, ovoz berish, moderatsiya, ishchi komessiya, g'olib loyihani aniqlash, "Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi", shartnoma tuzish.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Biz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti, mavjud holatni o'rganish uchun Andijon viloyati Oltinko'l tumani misolida 2021-2023-yillarda "Tashabbusli byudjet" loyihalari va ularning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar bilan bog'liq ma'lumotlar bilan tanishib chiqdik.

Quyidagi 1-jadvalda Andijon viloyati Paxtaobod tumanida tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar qay tartibda taqsimlanishi va sarflanishini ko'rish mumkin.. 2021-yil tasabbuslarni moliyalastirish uchun 1 500 000 ming so'm ajratilgan, 2022-yilda esa qariyb 13 113 055 ming so'm va 2023-yil 26 030 862 ming so'm miqdorida mablag'lar ajratilgan.

Jadval ma'lumotlar asosida qayd etish mumkinki, 2021-yil boshiga qoldiq yoq 2022-yil esa yil boshiga qoldiq 148 529 so'mni, 2023-yil 261 395 so'mni tashkil qilgan.

Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar 2021-yil 1 500 000 so'mni, 2022-yil 13 113 055 so'mga oshganini, 2023-yilda esa 26 030 862 so'mga oshganini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

**Andijon viloyati Paxtaobod tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun
yo'naltirilgan mablag'lar miqdori¹**

(ming so'm)

| T/r | Ko'rsatkich nomi | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|------|---|-----------|------------|------------|
| 1. | Yil boshiga qoldiq | 0 | 148 529 | 261 395 |
| 2. | Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar | 1 500 000 | 13 113 055 | 26 030 862 |
| 3. | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan | 1 500 000 | 13 000 189 | 24 883 000 |
| 3.1. | Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag' | 1 482 017 | 8 994 477 | 16 529 647 |
| 3.2. | Hisobvaraqlardagi qoldiq | 0 | 4 005 712 | 8 353 353 |
| 4. | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag' | 0 | 261 395 | 1 409 257 |

"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar mos ravishda 2021-yil 1 500 000 ming so'm, 2022-yil 13 000 189 ming so'mni, 2023-yilda esa 24 883 000 ming so'mni tashkil qildi

"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'lari 2021-yilda qolmaganligini, 2022-yili 261 395 ming so'mga, 2023-yil esa bu ko'rsatkich 1 409 257 ming so'mni tashkil qildi

Tashabbusli byudjet loyiha lari doirasida 2021-2023 yillarda Andijon Viloyati Paxtaobod tumanida amalga oshirilgan tadbirlarning asosiy qismini umumta'im maktablarini ta'mirlash, sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash, mahalliy ichki yo'llarni ta'mirlash va boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlashga yo'naltirilganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ko'rsatkichlar asosida ko'radigan bo'lsak pul mablag'lar tashabbusli byudket loyihalariga yildan yilga oshib kelmoqda. Bu esa jamiyat va xalqimiz tomoidan berilayotgan maummo va masalalar ko'rib yechib kelinmoqda.

Quyidagi 2- jadvalda ko'rishimiz mukmkinki: 2021-2023 yillarda taklif etilgan loyihalar soni va ularga ajratilib sarflangan mablag'lar miqdori bilan tanishinib o'tishimiz mumkin.

Andijon viloyati Paxtaobod tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlarda hududiy ichki yo'llarni ta'mirlashga mos ravishda 2021-yil 1 012

¹ <https://openbudget.uz/boards/reports>

051 ming so'm jami ajratilgan mablag'ning 62%i, 2022-yilda bo'lmaganligini, 2023-yil 15 366 190 ming so'mni, jami ajratilgan mablag'ning 58.3%ini tashkil qilgan.

Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash ishlari bo'yicha 2022-yil 7 300 000 ming so'mni jami ajratilgan mablag'ning 55%i, 2023-yil 6 272 934 ming so'mni jami ajratilgan mablag'ning 23.8% ni tashkil qilgan.

Maktabgacha ta'im muassasalarini ta'mirlash va jihozlash borasida olib borilgan ishlar ko'lami ham quvonarli, 2023-yilda ko'rsatkich 1 373 175 ming so'mga yetganligini ko'rishimiz mumkin.

Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash loyihalariga 2021-yil 200 000 ming so'm, 2023-yilda 999 332 ming so'm pul mablag'lari yo'naltirilgan

Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash, "Tashabbusli byudjet" da g'olib deb topilgan loyihahalarga 2022-yil 3 165 400 ming so'm pul mablag'ari maqsadli yo'naltirilgan.

2-jadval

Andijon viloyati Paxtaobod tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar²

| T/r | Tadbirlar nomi | Moliyalashtirilgan takliflar soni | | | Sarflangan mablag' (ming so'mda) | | |
|-------------|---|-----------------------------------|-----------|-----------|----------------------------------|-------------------|------------------|
| | | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
| Jami | | 7 | 21 | 34 | 1 631 000 | 13 146 750 | 263373 10 |
| 1. | Hududiy ichki yo'llar | 4 | 2 | 12 | 1 012 051 | | |
| 2. | Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash | | 11 | 17 | | 7 300 000 | 6 272 934 |
| 3. | Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | | | 1 | | | 1 373 175 |
| 4. | Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | 1 | | 1 | 200 000 | | 999 332 |
| 5. | Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | | 4 | | | 3 165 400 | |

² <https://openbudget.uz/boards/reports>

| | | | | | | | |
|----|---|---|---|---|---------|-----------|-----------|
| 6. | Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash | 1 | 1 | | 260 000 | 930 000 | |
| 7. | Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari | | | 1 | | | 954 926 |
| 8. | Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish) | | 3 | 2 | | 1 751 350 | 1 400 753 |
| 9. | Boshqa tadbirlar | 1 | | | 158 949 | | |

Andijon viloyati Paxtaobod tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlarda hududiy ichki yo'llarni ta'mirlashga mos ravishda 2021-yil 1 012 051 ming so'm jami ajratilgan mablag'ning 62%i, 2022-yilda bo'lmaganligini, 2023-yil 15 366 190 ming so'mni, jami ajratilgan mablag'ning 58.3%ini tashkil qilgan.

Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash ishlari bo'yicha 2022-yil 7 300 0000 ming so'mni jami ajratilgan mablag'ning 55%i, 2023-yil 6 272 934 ming so'mni jami ajratilgan mablag'ning 23.8% ni tashkil qilgan.

Maktabgacha ta'im muassasalarini ta'mirlash va jihozlash borasida olib borilgan ishlar ko'lami ham quvonarli, 2023-yilda ko'rsatkich 1 373 175 ming so'mga yetganligini ko'rishimiz mumkin.

Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash loyihalariga 2021-yil 200 000 ming so'm, 2023-yilda 999 332 ming so'm pul mablag'lari yo'naltirilgan

Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash, "Tashabbusli byudjet" da g'olib deb topilgan loyihahalarga 2022-yil 3 165 400 ming so'm pul mablag'ari maqsadli yo'naltirilgan.

Quyidagi 3-jadvalda Andijon viloyati Paxtaobod tumanida fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalarini ko'rib chiqamiz.

3-jadval

Andijon viloyati Paxtaobod tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari³

(mln so'm)

| Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|--|----------|----------|----------|
| Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar | | 10499.7 | 13571.3 |

³ <https://openbudget.uz/boards/reports>

| | | | | |
|---|--|-------------|----------------|----------------|
| Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari | | | | 674.8 |
| Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar | | | 949.4 | |
| Shu jumladan | Erkin qoldiq mablag'lari | | 32.2 | 502.5 |
| | Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi | | 917.2 | 172.3 |
| | Iqtisod qilingan mablag'lar | 1631 | | 586.8 |
| Qo'shimcha ajratilgan | PQ-5250ga asosan | | 1644 | |
| | PQ-409ga asosan | | | |
| | PQ-117ga asosan | | | 11198 |
| Jami ajratiladigan mablag'lar | | 1631 | 14042.5 | 26705.7 |

Biz 3-jadvalda fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari va shakllangan mablag'lar miqdorini ko'rib tahlil qilishimiz mumkin. 2021-2023-yillar oralig'idagi jarayonlarni tahlil qilamiz. Misol uchun 2021-yil faqat bitta chorak bo'lganligi uchun faqat iqtisod qilingan mablag'lardan 1 631 mln so'm mablag' ajratilganini ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan.

2022-yil 1-chorakda umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar 5 365 mln so'm, tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 312,2 mln so'm, erkin qoldiq mablag'lar 32,2 mln so'm va daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi 280 mln so'mni tashkil qilgan, jami 1-chorakda 5 989,4 mln so'm mablag' ajratilgan. Eng ko'p mablag' umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lardan shakllangan. 2022-yil 2-chorakda tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 439,6 mln so'mni va daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismidan 439,6 mln so'm ajratgan, jami bu chorakda 879,2 mln so'm ajratilganini ko'rishimiz mumkin. 2022-yil 3-chorakda umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar 5 134,7 mln so'mni, tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 197,6 mln so'mni va daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismidan 197,6 mln so'mni tashkil qilgan. 2022-yil 4-chorakda faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-sentyabridagi PK-5250-sonli qaroriga asosan 1 664 mln so'm mablag' ajratilgani ko'rishimiz mumkin.

2023-yil birinchi chorakda umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lardan 6 785 mln so'm, tuman mahalliy budjeti qo'shimcha

manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 502,5 mln so'm va erkin qoldiq mablag'lardan ham 502,5 mln so'm mablag' ajratilganini ko'rishimiz mumkin, jami bu chorakda 7 709 mln so'm mablag' ajratilgan. 2023-yil 2-chorakda tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lardan 172,3 mln so'm, daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismidan ham 172,3 mln so'm ajratilgan va jamg'armaga qaytarilgan mablag'lardan 296 mln so'm, jami 640,6 mln so'm ajratilganini ko'rishimiz mumkin. 2023-yil 3-chorakda umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lardan 6 786,3 mln so'm, jamg'armaga qaytarilgan mablag'lardan 264,1 mln so'm va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PK-117-son qaroriga asosan 11 198 mln so'm ajratilgan mablag'larni, jami bu chorakda 18 248,4 mln so'm mablag' ajratilganini ko'rishimiz mumkin. 2023-yil 4-chorakda faqat jamg'armaga qaytarilgan mablag'lardan 26,7 mln so'm mablag' ajratilganini ko'rishimiz mumkin. Biz bu jadvaldan daromad va xarajatlarning o'zgarib turganini ko'rishimiz mumkin. Bu tumanga eng ko'p tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lardan ajratilganini ko'rishimiz mumkin

4-jadval

**Andijon viloyati Paxtaobod tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida
amalga oshirilgan loyihalar tarkibi⁴**

| T/r | Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi) | Jami to'plagan ovozlar soni | Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (ming so'm) |
|-----------------|--|------------------------------------|--|
| 2021-yil | | | |
| 1. | Ayronchi MFY Obod ko'cha 3 tor ko'chani 100 metr asfalt qilish | 1 021 | 1 012 056 |
| 2. | Gulbo'g' Ittifoq MFY Ittifoq kochasiga ga 600 Metr ichimlik Suvi tortish zarur | 325 | 200 000 |
| 3. | Sharq Yulduzi MFY ga Axoli uchun toza ichimlik suvi tortish x | 659 | 260 000 |
| 4. | Bo'ston MFY ga optik tolalik internet tizimini tortib kelish kerak | 84 | 9 960 |
| 2022-yil | | | |
| 1. | Obod MFY Qabristonini temir to'siq bilan o'rash | 1 063 | 300 000 |

⁴ <https://openbudget.uz/boards/reports>

| | | | |
|------------------|--|--------|------------------|
| 2. | Boyagi MFY Barhayot 4 ko'chasini asfaltlash | 833 | 144 683 |
| 3. | Navro'z MFY hududidagi davlat xizmatlari markazini rekonstruksiya qilish | 827 | 840 000 |
| 4. | Bo'yi MFY Omilkor ko'chasini asfaltlash | 777 | 289 000 |
| 5. | Qora qon MFY mahalla idorasi qurish | 763 | 283 000 |
| 6. | Qayer MFY Doniyor ota Qabristonini qo'rg'on bilan o'rash | 719 | 500 000 |
| 7. | Uchqo'rg'on MFY ga mahalla idorasini qayta qurish | 711 | 500 000 |
| 8. | Bobur MFY BO'SM qayta qurish | 704 | 45 000 |
| 9. | Qashqar MFY 2 maktabning isitish tizi | 697 | 425 000 |
| 10. | Ovushqa MFY hududidagi 1,4 km ichki yo'llarni asfaltlash | 685 | 375 631 |
| 11. | Boshqalar | 30 948 | 9 672 000 |
| 2023- yil | | | |
| 1. | Paxtaobod tumanidagi 21-IDUM ga qo'shimcha o'quv bino kurish | 8 350 | 1 200 000 |
| 2. | Paxtaobod tumanidagi 69-IDUM ga 120 o'rinli qo'shimcha O'quv bino kurish | 7 889 | 1 200 000 |
| 3. | Paxtaobod tumanidagi 16-umumta'lim maktabiga qo'shimcha o'quv binosi kurish | 7 781 | 1 200 000 |
| 4. | Paxtaobod tumanidagi 15-umumta'lim maktabida deraza va eshiklar almashtirish. Derazalarni AKFA plas va MDF eshiklarga almashtirish | 7 785 | 1 200 000 |
| 5. | Paxtaobod tumanidagi 12-umumta'lim maktabi hududiga mini stadion qurish. | 7 924 | 1 200 000 |
| 6. | OBOD" MFY xududida joylashgan qabristonga ma'muriy bino kurish | 7 781 | 700 000 |
| 7. | Mustaqillik mfy ichki ko'chalaridagi zeki sim yogochlar o'rniga 120 ta zamonaviy temir beton tayanch va 4 dona tp (transformator) o'rnatish zarur. | 1 265 | 1 200 000 |
| 8. | Paxtaobod tumani 20-umumiy o'rta ta'lim maktabini deraza va eshiklarini akfa | 7 699 | 900 000 |

| | | | |
|-----|---|--------|------------|
| | deraza eshiklarga almashtirish qorovullar uchun yangi xona qurish va faollar zalini ta'mirlash. | | |
| 9. | Paxtaobod tumanidagi 22-maktabning qo'shimcha zeki binosini buzib yangi bino qurish uchun | 7 167 | 1 200 000 |
| 10. | Qoraqo'rgon mfy xududidagi 1 - maktabga sport zali qurish | 6 877 | 1 200 000 |
| 11. | Boshqalar | 67 975 | 15 023 000 |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkin, 2021- yilda loyihalar turlari va soni cheklangan bo'lib, eng katta mablag' „hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash ishlari" uchun(1 012 056 ming) ajratilgan. Eng kichik mablag' yutgan loyiha „sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash ishlari"(200 000 ming) uchun va boshqalar(9 960 ming) hisoblanadi.

2022-yil uchun ajratilgan jadvalda „Nuroniylar maskani OSK" loyihasi eng katta mablag' yutgan loyiha(1 200 000 ming) sifatida aks etgan. „Bobur MFY BO'SM qayta qurish" loyihasi 45 000 ming mablag' bilan eng kichik mablag'ga ega loyiha sifatida qayd etilgan.

2023-yil uchun jadvaldan ko'rish mumkinki, ichki yo'llar va maktab loyihalari ichidan 3 nafari maksimal 1 300 000 ming mablag' yig'gan holda, yetakchilik qilmoqda. Loyihalarning katta qismi 1 000 000 ming va undan yuqori mablag' olgan holda ushbu mavsumlardagi mablag'lar hajmi oshganligini ko'rsatib turibdi. „To'qqizbog' MFY Tantana, Murabbiy ko'chalarini asfaltlash" loyihasi(300 000 ming) eng kichik mablag'ga ega loyiha sifatida aks etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Tashabbusli byudjetlashtirish fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun mahalliy byudjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sarflash yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарк. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo'llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.

5. Маликов ТС. Хайдаров НХ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O‘quv qo‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
- 10.У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
- 11.У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
- 12.Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
- 13.УҲ О‘роқов, JA Yomg‘Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta‘minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
- 14.Ўроқов УҲ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
- 15.Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
- 16.Уроқов У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
- 17.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
- 18.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
- 19.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
- 20.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
- 21.У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
- 22.G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
- 23.Хайдаров N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
- 24.Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.

25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. “Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Машарипов И. Б. Фуқаролик жамиятининг ривожланиш даражасини баҳолаш индекслари. ЎзМУ ХАБАРЛАРИ. 2018. 1/6 сон